# IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 12 608,8 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,6 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 6 015,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

| | *mlrd. so‘m* | *o‘sish sur’ati, %* | *umumiy hajmga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| **Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar** | **12 608,8** | **99,6** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | |
| **Markazlashgan investitsiyalar:** | **2 255,9** | **121,7** | **17,9** |
| budjet mablag‘lari | 930,5 | 82,3 | 41,2 |
| Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 152,2 | 57,2 | 6,7 |
| tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari | 51,9 | 804,6 m. | 2,3 |
| hukumat kafolati ostida chet el kreditlari | 1 121,3 | 245,8 | 49,8 |
| **Markazlashmagan investitsiyalar:** | **10 352,9** | **95,8** | **82,1** |
| korxonalarning o‘z mablag‘lari | 2 846,0 | 101,0 | 27,5 |
| aholi mablag‘lari | 1 851,6 | 91,8 | 17,9 |
| to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar | 4 894,6 | 89,7 | 47,3 |
| tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag‘lari | 760,7 | 145,5 | 7,3 |

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Markazlashgan investitsiyalar 2 255,9 mlrd. so‘m

12 608,8 mlrd. so‘m

o‘sish sur‘ati 99,6 %

Markazlashmagan investitsiyalar 10 352,9 mlrd. so‘m

O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 440,4 mlrd. so‘m

**Jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar 6 015,9 mlrd. so‘m**

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 4 894,6 mlrd. so‘m

| Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar, tarkibi % da | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| 6,7 % | Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish | 57,2 % |
| 2,3 % | Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari | 804,6 m. |
| 41,2 % | Respublika budjeti | 82,3 % |
| 49,8 % | O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar | 245,8 % |

| Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar, tarkibi % da | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| 27,5 % | Korxonalarning o‘z mablag‘lari | 101,0 % |
| 17,9 % | Aholi mablag‘lari | 91,8 % |
| 47,3 % | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar | 89,7 % |
| 7,3 % | Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 145,5 % |

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

| | *jami* | *davlat* | *nodavlat* |
|---|---|---|---|
| **Jami,** *mlrd. so‘m* | **12 608,8** | **1 811,7** | **10 797,1** |
| *shu jumladan:* | | | |
| qurilish-montaj ishlari | 5 320,2 | 1 406,3 | 3 913,9 |
| mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari | 5 491,0 | 137,4 | 5 353,6 |
| Boshqa xarajatlar | 1 797,6 | 268,0 | 1 529,6 |

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 9,8 % li punktga kamayganligi, mashina, uskunalar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari qiymati ulushi 4,6 % li punktga ko‘payganligi va boshqa xarajatlarning ulushi 5,2 % li punktga ko‘payganligini ko‘rsatmoqda.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 2 255,9 mlrd. so‘mlik investitsiya mablag‘lari kiritilib, bu ko‘rsatkich jami investitsiyalarning 17,9 % ni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish

sur’ati 121,7 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 352,9 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 82,1 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 95,8 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobiga 2 846,0 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 101,0 % o‘zlashtirildi. Aholining mablag‘lari hisobidan 1 851,6 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 14,7 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 1 121,3 mlrd. so‘mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 245,8 % ga oshgan yoki jami investitsiyalarning ulushi 8,9 % ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 760,7 mlrd. so‘mlik mablag‘lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 6,0 %), bu o‘sish sur’ati 145,5 % ni tashkil etdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 4 894,6 mlrd. so‘m (ulushi 38,8 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 89,7 % ni tashkil etdi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan 51,9 mlrd. so‘m (ulushi 0,4 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 804,6 martaga ko‘paydi, Viloyat budjeti 930,5 mlrd. so‘m (ulushi 7,4 %) usish sur’ati 82,3 %. Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 152,2 mlrd. so‘m, (ulushi 1,2 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 57,2 % ga kamaydi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar

Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishlash sanoatiga 1 616,5 mlrd. so‘m (13,4 %), shundan koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishga 826,3 mlrd.so‘m (6,6 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishga 508,4 mlrd.so‘m (4,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga 195,6 mlrd.so‘m (1,6 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga 1 086,2 mlrd.so‘m (8,6 %), tashish va saqlashga 462,5 mlrd. so‘m (3,7 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 2 998,2 mlrd. so‘m (30,4 %), shundan tabiiy gazni qazib olishga 2 948,4 mlrd, so‘m (23,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyat turiga 524,2 mlrd. so‘m (4,2 %), elektr energiyasi va gaz ta’minotiga 102,4 mlrd.so‘m (0,8 %), suv ta’minoti kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga 132,3 mlrd. so‘m (1,3 %), qurilishda 771,9 mlrd.so‘m (6,1 %), ulgurji va chakana savdoga 353,5 mlrd. so‘m (2,9 %), axborot va aloqa 98,9 mlrd. so‘m (0,8 %), professional ilmiy va texnik xizmat turlariga 0,5 mlrd. so‘m (0,1 %), ta’limga 276,7 mlrd. so‘m (2,2 %), davlat boshqaruvi va mudofaga 486,8 mlrd. so‘m (3,9 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 5,0 mlrd. so‘m (0,1 %), moliya va sug‘urta faoliyatiga 0,5 mlrd. so‘m (0,1 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga 441,3 mlrd. so‘m (3,5 %), turar-joy qurilishiga 979,0 mlrd. so‘m (7,8 % ) va boshqa faoliyat turlariga 410,2 mlrd. so‘m (7,5 %) to‘g‘ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar**
***(umumiy hajmga nisbatan % da)***



**2023- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi**

- **Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan**
  - Respublika byudjet
    930,5 mlrd. so‘m
  - Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi
    152,2 mlrd. so‘m
  - Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
    51,9 mlrd. so‘m
  - O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar
    1 121,3 mlrd. so‘m

- **Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan**
  - Korxonalar, shu jumladan mahalliy byudjet mablag‘lari
    2 846,0 mlrd. so‘m
  - Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari
    760,7 mlrd. so‘m
  - To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar
    4 894,6 mlrd. so‘m
  - Aholi mablag‘lari
    1 851,6 mlrd. so‘m

**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*




Jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 22,7 % korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan o‘zlashtirildi, shu bilan birga, To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 38,8 %, Respublika byudjeti hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 7,4 % ni tashkil etadi.

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

| | *Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m* | *O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati, %* | *Umumiy hajmdagi ulushi, %* |
|---|---|---|---|
| **Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan** | **12 608,8** | **99,6** | **100,0** |
| Respublika budjeti | 930,5 | 82,3 | 7,4 |
| Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 152,2 | 57,2 | 1,2 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 51,9 | 804,6 m. | 0,4 |
| O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari | 1 121,3 | 245,8 | 8,9 |
| Korxonalar mablag‘lari | 2 846,0 | 101,0 | 22,6 |
| Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 760,7 | 145,5 | 6,0 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar | 4 894,6 | 89,7 | 38,8 |
| Aholi mablag‘lari | 1 851,6 | 91,8 | 14,7 |

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o‘sish sur’atlari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari 1 121,3 mlrd. so‘m bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 245,8 % ni tashkil etgan.

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar,** *mlrd. so'm*

| | *2022- y. yanvar-sentabr* | *2023- y. yanvar-sentabr* | *o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, % da* | *jami investitsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSH doll.* |
|---|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **11 204,4** | **12 608,8** | **99,6** | **92 200,8** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 1 966,8 | 2 282,7 | 102,7 | 5 833,7 |
| Shahrisabz sh. | 176,0 | 260,6 | 131,1 | 100,0 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G'uzor | 1 981,7 | 1 694,1 | 75,6 | - |
| Dehqonobod | 212,7 | 217,4 | 90,4 | - |
| Qamashi | 180,8 | 363,5 | 177,9 | 1 620,0 |
| Qarshi | 538,5 | 608,4 | 100,0 | 5 068,1 |
| Koson | 437,7 | 514,5 | 104,0 | - |
| Kitob | 1 181,4 | 552,3 | 41,4 | 16 500,0 |
| Mirishkor | 324,4 | 248,8 | 67,9 | 4 459,0 |
| Muborak | 2 564,4 | 2 234,7 | 77,1 | 1 050,0 |
| Nishon | 394,3 | 1 732,4 | 388,9 | 31 570,0 |
| Kasbi | 310,9 | 519,9 | 148,0 | 24 000,0 |
| Ko'kdala | - | 238,9 | - | - |
| Chiroqchi | 342,3 | 435,1 | 112,5 | - |
| Shahrisabz | 368,8 | 345,2 | 82,9 | - |
| Yakkabog' | 223,7 | 360,2 | 142,5 | 2 000,0 |

**Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar**

*(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)*

| | *Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming so'mda* | *O'sish sur'ati, % da* |
|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **3 591,2** | **97,4** |
| *shahrlar:* | | |
| Qarshi sh. | 7 836,3 | 100,7 |
| Shahrisabz sh. | 1 790,1 | 129,2 |
| *tumanlar:* | | |
| G'uzor | 7 728,4 | 73,9 |
| Dehqonobod | 1 380,3 | 88,6 |
| Qamashi | 1 256,9 | 174,1 |
| Qarshi | 2 270,1 | 97,6 |
| Koson | 1 673,6 | 101,6 |
| Kitob | 1 984,4 | 40,6 |
| Mirishkor | 1 946,8 | 66,4 |
| Muborak | 24 184,6 | 75,8 |
| Nishon | 10 550,8 | 380,1 |
| Kasbi | 2 474,8 | 144,8 |
| Ko'kdala | 1 290,2 | 0,0 |
| Chiroqchi | 1 651,4 | 109,9 |
| Shahrisabz | 1 484,9 | 81,5 |
| Yakkabog' | 1 292,1 | 139,6 |

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Muborak tumani 15 303,5 ming so'm, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o'zlashtirilgan, G'uzor tumani 5 037,4 ming so'm, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar,** *mlrd. so'm*

| | *Asosiy kapitalga kiritil-gan investitsiyalar jami, mlrd. so' m* | *shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:* | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *Respublika budjeti* | *korxonalar mablag' lari* | *aholi mablag' lari* | *xorijiy investitsiyalar va kreditlar* | *Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari* |
| **Qashqadaryo viloyati** | **12 608,8** | **551,7** | **2 846,0** | **1 851,6** | **6 015,9** | **1 121,3** |
| *shaharlar:* | | | | | | |
| Qarshi sh. | 2 282,7 | 446,5 | 596,5 | 170,5 | 824,3 | 114,0 |
| Shahrisabz sh. | 260,6 | 10,9 | 69,8 | 60,1 | 74,5 | - |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| G'uzor | 1 694,1 | 28,9 | 841,4 | 153,2 | 640,7 | - |
| Dehqonobod | 217,4 | 20,1 | 32,0 | 118,1 | 2,0 | - |
| Qamashi | 363,5 | 39,2 | 56,2 | 93,8 | 160,8 | - |
| Qarshi | 608,4 | 25,5 | 66,0 | 108,5 | 210,8 | - |
| Koson | 514,5 | 27,3 | 20,5 | 151,8 | 191,1 | 95,2 |
| Kitob | 552,3 | 32,4 | 115,4 | 140,8 | 210,2 | - |
| Mirishkor | 248,8 | 11,5 | 48,3 | 82,5 | 94,9 | - |
| Muborak | 2 234,7 | 3,8 | 735,1 | 129,2 | 1 353,6 | - |
| Nishon | 1 732,4 | 20,2 | 112,4 | 70,8 | 1 463,9 | 791,1 |
| Kasbi | 519,9 | 31,5 | 12,7 | 95,2 | 353,2 | - |
| Ko'kdala | 238,9 | 141,5 | 5,8 | 42,5 | 47,9 | - |
| Chiroqchi | 435,1 | 24,3 | 27,9 | 254,0 | 119,0 | - |
| Shahrisabz | 345,2 | 33,5 | 40,3 | 77,1 | 150,2 | 120,9 |
| Yakkabog' | 360,2 | 33,2 | 65,7 | 103,5 | 118,7 | - |

*davomi*

| | Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m | shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari |
| **Qashqadaryo viloyati** | **12 608,8** | **152,2** | **51,9** | **760,7** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 2 282,7 | 57,6 | - | 187,2 |
| Shahrisabz sh. | 260,6 | - | - | 45,3 |
| tumanlar: | | | | |
| G‘uzor | 1 694,1 | 7,4 | - | 22,4 |
| Dehqonobod | 217,4 | 40,2 | - | 4,9 |
| Qamashi | 363,5 | 0,1 | - | 13,5 |
| Qarshi | 608,4 | 0,2 | - | 197,2 |
| Koson | 514,5 | 18,3 | - | 105,4 |
| Kitob | 552,3 | 0,0 | - | 53,5 |
| Mirishkor | 248,8 | 1,9 | - | 9,6 |
| Muborak | 2 234,7 | 0,2 | - | 12,8 |
| Nishon | 1 732,4 | 0,1 | 51,9 | 13,1 |
| Kasbi | 519,9 | 0,1 | - | 27,3 |
| Ko‘kdala | 238,9 | 0,0 | - | 1,2 |
| Chiroqchi | 435,1 | 0,3 | - | 9,7 |
| Shahrisabz | 345,2 | 8,1 | - | 36,0 |
| Yakkabog‘ | 360,2 | 17,6 | - | 21,5 |

### Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 741,5 ming kv.m. bo‘lgan 3 750 ta uy-joy qurilgan (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 99,3 %) shu jumladan, qishloq joylarda 291,6 ming kv.m, 1 427 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 868,9 mlrd. so‘mi yoki 6,9 % i turar-joy qurilishida o‘zlashtirildi.

Umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishida 123,1 mlrd. so'm atrofida investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1,0 foizini tashkil qiladi.

**Qurilish faoliyati.** 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 6 416,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi.




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari**

*(umumiy hajmga nisbatan % da)*




Qurilish ishlari umumiy hajmining 68,9 % ni binolar va inshootlarni qurishga, 18,5 % ni fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilishga 12,6 % ni ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 60,9 % ni yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to'g'ri keladi.

**Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*




**Korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi,** *mlrd.so‘m*




Jami qurilish ishlaridan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 24,7 % ni tashkil etib, ulushi 4,8 % li punktga ko‘paydi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasi 52,7 % ni tashkil etib, 2,0 % li punktga kamaydi, norasmiy sektorning ulushi 19,3 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi,**
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*




Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 3 910,2 mlrd. so‘mni (ulushi 60,9 % ) tashkil etdi. Kapital, joriy ta’mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 2 506,6 mlrd. so‘mni (ulushi 39,1 %) tashkil etdi.

**Qurilish ishlari turlari bo‘yicha**
*(jamiga nisbatan foiz hisobida)*



**Yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi,** *mlrd. so'm*

| | *2022- yil* | *2023- yil* | *o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da* | *Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **5 220,5** | **6 416,8** | **109,0** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 1 572,9 | 1 971,5 | 108,7 | 30,7 |
| Shahrisabz sh. | 235,7 | 357,8 | 138,1 | 5,6 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G'uzor | 463,0 | 600,3 | 129,0 | 9,4 |
| Dehqonobod | 104,7 | 103,9 | 100,2 | 1,6 |
| Qamashi | 149,1 | 172,1 | 105,9 | 2,7 |
| Qarshi | 445,6 | 480,2 | 101,2 | 7,5 |
| Koson | 347,5 | 357,7 | 109,9 | 5,6 |
| Kitob | 417,3 | 271,9 | 84,1 | 4,2 |
| Mirishkor | 136,3 | 128,1 | 100,1 | 2,0 |
| Muborak | 264,0 | 494,6 | 177,2 | 7,7 |
| Qarshi | 183,0 | 137,1 | 103,6 | 2,1 |
| Kasbi | 210,2 | 237,0 | 100,1 | 3,7 |
| Ko'kdala | 74,7 | 19,3 | 127,0 | 0,3 |
| Chiroqchi | 430,1 | 593,7 | 86,2 | 9,3 |
| Shahrisabz | 185,7 | 221,7 | 102,8 | 3,5 |
| Yakkabog' | 278,3 | 269,7 | 102,4 | 4,2 |

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha qurilish ishlari hajmida Qarshi shahri 1 971,5 mlrd. so‘m, G‘uzor 600,3 mlrd. so‘m, Yakkabog‘ 269,7 mlrd. so‘m va Qarshi 480,2 mlrd. so‘m hajmli tumanlar yuqori ulushlarga ega.

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’atlari**




Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlarining yuqori o‘sish sur’ati Muborak (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 177,2 %), Shahrisabz shahri (138,1 %), Kasbi tumani (100,1 %) va Yakkabog‘ (102,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan qurilish ishlari hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar G‘uzor tumani (2 738,6 ming so‘m, o‘sish sur’ati 112,4 %), Qarshi shahri (6 768,0 ming so‘m yoki o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 109,0 %), Muborak tumani (5 353,3 ming so‘m,o‘sish sur’ati 163,4 %) hamda Yakkabog‘ tumani (967,5 ming so‘m, o‘sish sur’ati 84,3 %) qayd etildi.



**Aholi jon boshiga qurilish ishlari**
*(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)*

| | *Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi, ming so'mda* | *O'sish sur'ati, % da* |
|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **1 827,6** | **106,7** |
| *shaharlar:* | | |
| Qarshi sh. | 6 768,0 | 109,0 |
| Shahrisabz sh. | 2 457,1 | 132,7 |
| *tumanlar:* | | |
| G'uzor | 2 738,6 | 112,4 |
| Dehqonobod | 659,9 | 86,3 |
| Qamashi | 595,1 | 100,2 |
| Qarshi | 1 791,7 | 93,3 |
| Koson | 1 163,7 | 89,2 |
| Kitob | 977,2 | 56,7 |
| Mirishkor | 1 002,0 | 81,6 |
| Muborak | 5 353,3 | 163,4 |
| Nishon | 834,9 | 65,0 |
| Kasbi | 1 128,1 | 97,9 |
| Ko'kdala | 104,4 | 22,2 |
| Chiroqchi | 2 253,2 | 119,7 |
| Shahrisabz | 953,7 | 104,2 |
| Yakkabog' | 967,5 | 84,3 |

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi,**
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*




Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ko'rsatkichlari Muborak (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 67,4 %), Shahrisabz shahar (ulushi 48,2 %), G'uzor (ulushi 36,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari ulushi,**
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*




Jami qurilish hajmidan eng yuqori ulushni Qarshi shahrida 30,7 % ni, G‘uzor tumanida 9,4 % ni va Muborak 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat miqyosida qurilish ishlari hajmida eng past ulushlar Ko‘kdala (0,3 %), Dehqonobod (1,6 %) va Mirishkor (2,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.